MEZOLIT DAVRI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI

Eshmamatova Oysanam

ShDPI ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20347609

Annotatsiya: Ushbu maqolada tosh davrining keyingi rivojlanish bosqichlaridan biri bo‘lgan Mezolit davrini davrlashtirish masalasi ,boyligi va murakkabligini hisobga olib ,tarixchi olimlar va arxeologlar tomonidan davomli ravishda o‘rganib kelinmoqda aynan shular haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar : o‘rta tosh davri,o'q yoy,muzlik davri,azel, tardenuaz,mikrolit qurollar,nukleslar prizma konus,

Аннотатсия: В данной статье рассматривается вопрос периодизации мезолита, одного из следующих этапов развития каменного века, который постоянно изучается историками и археологами с учетом его богатства и сложности.

Ключевые слова: лук среднего каменного века, ледниковый период, азель, тарденуа, микролитическое оружие, ядра призма- конус.

Annotatsion: This article discusses the issue of periodization of the Mesolithic, one of the next stages of development of the Stone Age, which is continuously studied by historians and archaeologists, taking into account its richness and complexity.

Key words: Middle Stone Age bow, ice age, azel, tardenois, microlithic weapons, nucle prism cone,

Kirish: Mezolit (mezo... va lithos — tosh) — o‘rta tosh davri; paleolitdan neolitga o‘tish davri (miloddan avvalgi 12-7 ming yillik).Geologik pleyspgotsendan hozirgi golosenga o‘tish davri. Mezolitda hayvonot dunyosi, landshaftlar muzlik davridan xalos bo‘lib hozirgi tabiiy sharoitga moslashgan. (3)Muzlik davriga moslashgan yirik hayvonlar (mamontlar) yo‘q bo‘lib, yangilari paydo bo‘lgan. Inson hayotida katta o‘zgarishlar sodir etilgan. Mezolitda o‘q-yoyning kashf etilishi bilan yakka oila bo‘lib yashash imkoniyati tug‘ilgan. Tosh, suyak, yog‘ochdan mikrolit qurollar (pichoq, qirg‘ich, bolta) kashf qilingan. Bu qurollar yordamida odamlar yakka holda ov qilish imkoniga ega bo‘lishgan. Shu tariqa jamoa bo‘lib yashashga barham berilgan. (2)Mezolit davri odamlari ovchilik, baliqchilik, terimchilik bilan shug‘ullanganlar.Bu davr jamoasida diniy tasavvurlar ma’lum bir shaklga kirdi. Bu haqda mezolit davri mozorlari, qoyatosh rasmlari darak beradi. 0 ‘rta Osiyodagi mezolit davri yodgorliklaridan 3tasida - Qayla, Tutkaul, Machay makonlarida mozorlar topilgan. Ular mezolit davrining so‘ngi bosqichiga taalluqli. Qayla g'orida 2 mozor o‘rganilgan. Skeletlar chalqanchasiga yotqizilib, oyoqlari biroz bukilgan, ustiga oxra sepilgan. Yonlarida dengiz chig‘anoqlaridan yasalgan taqinchoqlar topilgan. Bosh suyagi ustiga ham mayda tosh munchoqlar tizib chiqilgan. Boshqa mozorlarda ham shu holat kuzatilgan. Bulami barchasi narigi dunyoga ishonishni bildiradi.[1]

Adabiyotlar va metologiyasi:

Ushbu maqolani yoritishda mezolit davri yodgorliklari kashfiyotlari haqida N.A.Egamberdiyeva "Arxeologiya" 2011 A.V. Arsexovskiy "Arxeologiya Asoslari" Toshkent 1970 Ramon Ibragimov "Arxeologiya "Toshkent 2020 ma’lumotlarida uchraydi umuman olganda bu kitoblar bizga maqolani yoritishda umuman olganda mezolit davrini o‘rganishda katta yordam beradi.

Mezolit davri yodgorliklari:

Ayrtom yodgorligi janubiy 0 ‘zbekistondagi mezolit davri yodgoriklaridan biri hisoblanadi. U Termizdan 18 km sharqda, Amudaryoning o‘ng sohilida joylashgan ko‘p qatlamli yodgorlikdir. Bu erdan mezolit davriga oid tosh qurollar, nukleuslar, pichoqsimon paraqalar, uchrindilar, qirgMchlar, teshgichlar, tosh parmalagichlar, o‘q va nayza uchlari topilgan. Ular Obishir, Tutqovul, yodgorliklaridan topilgan tosh qurollariga o‘xshab ketadi. Qoyatoshlarga chizilgan rasmlar ibtidoiy odamlarning dunyoqarashi bilan bog‘liq.(2)Qoyatosh rasmlari O'zbekistonning togMik tumanlarida keng tarqalgan. Qoya toshlarga rasmlar ikki usulda chizilgan: 1- har xil bo‘yoqlar (oxra) bilan, 2- urib - o‘yish yoMi bilan. 0 ‘zbekistonda urib-o‘yib chizish usuli bilan ishlagan rasmlar, ya’ni petrogliflar juda keng tarqalgan. Bo'yoqlar bilan ishlangan rasmlar juda kam uchraydi. 0 ‘zbekistonda qoya tosh rasmlarini o'rganish ishi asosan XX asming 30 yillaridan boshlangan. Bu sohada G.V.Parfyonov, A.P.Okladnikov, J.Kabirov, X.Botirov, M.Xo‘janazarov, Yu.Buryakov va boshqalaming xizmatlari kattadir. (1)O‘zbekistondagi qoyatosh rasmlarining eng ajoyib namunalariga Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Qorachorvoqsoy, Ko‘ksaroy, Ilonsoy, Teraklisoy, Tutlisoy, Sho‘rbuloqsoy, Xo‘jakent va boshqalami kiritish mumkin. Ular jami 100 dan ortiq joydan topilgan.Obishir V g‘or- makoni esa Obishir 1 dan 200 metrcha g‘arbda joylashgan. U erda 3 ta madaniy qatlam aniqlangan. U erdan topilgan mehnat qurollarining ishlanish texnikasi Obishir 1 ga o‘xshaydi. U eming quyi madaniy qatlamlaridan oq-qora va kul rang chaqmoqtoshdan yasalgan mikrolitlar — paraqalar, pichoq qadamalari, qirg'ichlar, keskichlar, teshgichlar, o‘roq-randalar va turli shakldagi nukleuslar topilgan. Shuningdek, bu erdan yovvoyi hayvonlaming parchalangan va sindirilgan suyaklari ham topilgan. Keyingi yillarda Markaziy, Janubiy va Sharqiy Farg‘ona erlaridan mezolit davri makonlari ko‘plab topilgan. Markaziy Farg‘onadan bu davriga oid lOOga yaqin joydan makonlar topilgan. Ulardan Ittak qal’a, Sho‘rko‘l, Achchiko‘1, Yangiqadam, Bekobod, Zambor, Bosqumlar diqqatga sazovordir. U erlardan har xil shaklda retushlangan va retushlanmagan nukleuslar, qirg‘ichlar, paraqalar, mayda geometrik qurollar topilgan. Bu erda ko‘proq mayda nukleuslar uchrab, yirik nukleuslar deyarli uchramaydi. (1)Daryo toshlaridan olingan uchrindilar ham bor. Bu erdan topilgan mehnat qurollari qora, yashil, jigarrang chaqmoqtosh, slanec va boshqa toshlardan yasalgan. (2)Bu yodgorliklar ochiq joydagi makonlar boMib, madaniy qatlamlar yo‘q. Tadqiqotchilar fikricha, Markaziy Farg‘onadagi ilk va so'nggi mezolit davri makonlar o‘sha vaqtning o‘zidayoq tashlab ketilgach, buzila boshlagan. Hozirda bu joylar keng qum barxanlari ostida qolgan. Lekin mezolit va neolit davrlarida bu erlarda ko‘llar bo‘lgan. Ibtidoiy odamlar shu ko‘l sohillarda yashaganlar. Termachilik, ovchilik, baliqchilik bilan shug'ullanganlar.[3]

Muhokama va natijalar:

Mezolit Mezolit davrini sistemali o‘rganishni A.P.Okladnikov boshlab bergan. Keyinchalik Katta va Kichik Balxash hududlarida ko‘p qatlamli mezolit davriga oid yodgorliklar, Ustyurtda, Markaziy Farg‘onada, Qizilqum, Pomirda mezolit yodgorliklari ko'plab topilgan.Farg‘ona vodiysida va uning janubidagi togMi hududlarda mezolit davri makonlar ancha ko‘p topilgan.(2) Shular jumlasiga, Farg‘ona vodiysining janubidagi Qatron tog‘idan topilgan ObishirI va Obishir V g‘or-makonlarini kiritish mumkin. Ular miloddan avvalgi IX-VIII ming yilliklarga oiddir.(4)Machay g‘or makoni mezolitning so'nggi bosqichiga oid yodgorlik bo‘lib, u Hisor tizmasining Ketmonchopti tog‘ining janubidan Machay daryosining o‘ng sohilidan topilgan.Machay g‘orining madaniy qatlamlaridan antropologik materiallar - odam bosh suyaklari, tishi, jag‘i va boshqa a’zolarining suyak qoldiqlari topilgan. Haligacha 0 ‘rta Osiyoning mezolit davriga oid yodgorliklaridan bunday topilmalar topilgani yo‘q.Qo‘shilish makoni Toshkentning g‘arbida qadimgi Bo‘zsuv anhorining chap sohilidan topilgan. U erdan nukleuslar, mayda paraqachalar, qirg‘ichlar topilgan. [2]

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytganda, Mezolit davri odamlarning hayotidagi muhim o‘zgarishlar davri bo‘lib, bu davrda insoniyat yangi resurslardan foydalanishni o‘rganib, qo‘l mehnatiga asoslangan yangi texnologiyalar yaratdi. Mezolit davri yodgorliklari insoniyatning rivojlanish jarayonida, ayniqsa, toshdan qurollar tayyorlash, ovchilik va yig'ishchilik kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan.Mezolit davriga oid yodgorliklar hali to'liq o'rganilmagan. Yangi arxeologik qazishmalar va tadqiqotlar o'tkazish, ularning tarixiy ahamiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili

1. R.Ibragimov "Arxeologiya asoslari" Toshkent-2022 (47-57)betlar
2. N.A.Egamberdiyeva "Arxeologiya" 2011 (38-45) betlar
3. J.Kabirov.A.Sagdullayev "O‘rta Osiyo arxeologiyasi" Toshkent "O‘qituvchi"-1990
4. 4 A. Arsixovskiy " Arxeologiya asoslari" Toshkent-1970 (44-50) betlar
5. Asqarov A. — O‘zbekiston tarixi (eng qadimgi davrlardan milodiy V asrgacha). Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
6. Asqarov A. — Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. Toshkent, 2007.
7. Sulaymonov R.H. — Qadimgi Toshkent vohasi madaniyati. Toshkent: Fan, 2000.
8. Kabirov J.K. — O‘rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent, 1997.
9. Masson V.M. — Первобытная история Средней Азии и Казахстана. Moskva: Nauka, 1966.
10. Ranov V.A. — Каменный век Средней Азии и Казахстана. Dushanbe, 1972.
11. Okladnikov A.P. — Утро искусства. Leningrad, 1967.
12. Tolstov S.P. — По древним дельтам Окса и Яксарта. Moskva, 1962.